



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2024



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Yuldasheva D.N., Axtamova N.B.	O‘zbek tili qavm-qarindoshlik leksikasining diskursiv tahlili	3
Bobokalonov O.O., Jumayev A.A.	Linguistic features of phytomorphic and zoomorphic images in french and german fairy tales	10
Navruzova M.G.	O‘zbek xalq ertaklarida tibbiy birliklar	16
Jonridova S.Sh.	Tilshunoslikda implikasiya masalasining o‘rganilishi	20
Abdulxayrov D.P.	Ekskursiya nutqida kommunikativ ko‘nikmaning roli	26
Azimova S.Kh.	Intercultural pragmatic features of speech acts of expressing “surprises” in American culture	31
Fattoyeva Z.R., Botirova F.B., Quziyeva T.F.	Qishloq xo‘jaligiga oid terminlarning tuzulishiga ko‘ra turlari	35
Jalilov B.H.	Ingliz internet leksikonida paydo bo‘lgan neologizmlarning lisoniy tahl	39
Kdirbaeva U.K.	Sintaktik takroming lingvopoetik ahamiyati	44
Mansurova N.A.	Marketing va menejment terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘zlashmalari	48
Nuriddinova Sh.K.	Tibbiy eponimlarning morfologik-struktur tabiati	53
Ruziev Y.B., Qosimova Z.S.	The definition of punctuation and the role of punctuation marks in german	58
Qurbonova D.O.	Pragmatic features of advertisementy in the english language	63
Radjabquliyeva M.A.	Reklamalarning jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiqi masalasi	67
Tilavova M.A.	Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo‘llanilgan zid ma’noli ayrim birliklar	71
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining tadqiq darajasi va talqini	75
Shamsiddinov T.G’.	Political discourse as an object of linguistic research on the examples of speeches of different presidents	79
Shamsiyeva S.R.	Tilning badiiy tasvir vositalari bo‘lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	84
Karimov R.A., To‘xtayev N.N.	Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili	88
Yusupova D.Y., Furqatova M.F.	Elbek – jadedlar davrida yaratilgan birinchi lug‘atlar muallifi	93
Markova Y.S., Zokirova N.S.	The nature, causes and solutions of lexical problems in translation	98
Muxtorova D.F.	National-specific and culture relevant phraseological units in english and their cultural connotation	103
Samandarov R.D.	Abzaslararo bog‘lanishda applikatorlarning o‘rni	108
Ubaydova H.A.	Maqollardagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan tadqiqi	113
Korshunova A.V.	Russian phraseological expressions with a phytonym component	118
Saidova N.A.	Frazeologik birliklarning milliy-ma‘daniy xususiyatlari va ularning nazmiy va nasriy asarlarda qo‘llanishi	123
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation analysis of islamic terms both in english and uzbek religious texts --prophets names translation	128
Jo‘rayeva M.M., Xayrullayeva U.A.	Gazeta sarlavhalarining pragmatik til vositalari (fransuz va o‘zbek gazetalari misolida)	132
Axmatova I.H.	Olot tumani etnotoponimlarining semantik tahlili	136
Gasimova I.A.	French linguists’ syntactic views	142
Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Nutqiy muloqotda lingvoma‘naviy birliklar	146

Расулова С.Г.	Макрополе «космоним» в топонимах русского и азербайджанского языков	152
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rizayev N.S.	O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining jadidchilik harakati g'oyalari bilan hamohangligi (ijtimoiy – falsafiy tahlil)	155
Adizov B.T.	Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalar faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi	159
Ahmadxojaev M.Z.	Legal basis of organizing the activity of a political leader	164
Asadova R.B.	O'zbekiston va Hindiston davlatlarining fan va ta'lim sohasidagi hamkorligi	168
Turg'unboeva D.A.	Migratsiyaning o'rganish borasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar	173
Ro'ziyeva G.S.	Madaniyat milliy o'ziga xoslik va milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida	179
Turgunbayeva D.A.	Study of the migration problem by uzbek scientists	183
Yusubov J.Q., Xusanova D.A.	Davlat fuqarolik xizmatchilarini shakllanishida ma'naviy-siyosiy dunyoqarashning o'rni	187
Musayev M.T.	Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etish va uning strategik vazifalari	193
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Rahmatov M.M.	BXSR va Germaniyada moliyaviy holat va narx-navo: qiyosiy tahlil (1920-1924-yillar)	197
Qudratov Sh.Y.	Buxoro jadidlarining tadbirkorlikka oid yondashuvlari	201
Radjabova N.M.	BXSRda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati	205
Xamrayev I.M.	Buxoro shahri hayoti va suv xo'jaligi tizimida Labi hovuz ansamblining tutgan o'rni	209
Гадоев Д.Х.	“Халифа Худойдод” жомеъ масжиди тарихи	213
Зарипов С.Дж.	Переселенческая политика Узбекистана под влиянием советов, трудовые ресурсы промышленности и сельского хозяйства	218
Niyozova M.I., Djumayeva S.S.	Buxoro muzeyi qo'riqxonasi ekspozitsiyalari to'plamidagi o'rin olgan ossuariylar	222
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F., Qahhorov X.X., Umrzoqov J.B.	Korxonalar boshqaruv faoliyatini baholashning xorij mamlakatlar tajribasi	226
Salimov A.F., Xolmatova M.S.	Iqtisodiyotning real sektorini isloh qilish va takomillashtirish istiqbollari	231
Salimov A.F., Shokirova D.O.	Korxonalarining asosiy faoliyatini baholash tizimini boshqarishni takomillashtirish	235
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Ubaydullaev S., Begmuradov Sh.D.	Possibilities to increase educational efficiency of students in physics through organizing virtual laboratories	240
SAN'AT*** ART *** ИСКУССТВО		
Bayramov M.A.	Memar ajami's creative works as a historical and cultural heritage	246
Huseynova R.H.	The historical development path of polyphonic series and its implementation in the creativity of azerbaijan composers	252

NUTQIY MULOQOTDA LINGVOMA'NAVIY BIRLIKLAR

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,

Buxoro davlat universiteti professori, p.f.nomzodi

yuldasheva21dilorom@gmail.com

ORSID 0000-0003-1976-5575

Asadova Shahlo Akmal qizi,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

asadova90shakhlo@gmail.com

Annotatsiya. Keyingi yillarda tillararo va madaniyatlararo munosabatlar kuchayganligi sababli tilshunoslar va sotsial psixologlar turli xalqlarning muomala madaniyatini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Chunki milliy, madaniy o'ziga xoslik o'sha xalqning xulqi, madaniyati, ma'naviyati va so'zlashuv jarayonida o'z aksini topadi. Zero, muayyan millatga mansub har bir shaxs nutqiy muloqot jarayonida o'z xalqi muomala madaniyati hamda ma'naviy dunyosiga xos xususiyatlardan foydalangan holda ishtirok etadi. Istalgan kishining o'zi yashab turgan muhitidagi odamlar bilan aloqa-aralashuvi, e'tiqodi, urf-odatlariga rioya etishi, intilishlari va h.lar uning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Bunda hech bir jihat yo'qki, til ishtirok etmasa yoki til vosita vazifasini bajarmasa. Shuning uchun ham mutaxassislar tilning sotsial mohiyatini tavsiflaganda til va xalq madaniyati, til va jamiyat, til va ma'naviyat masalalarini dialektik birlikda qarashni, haqli ravishda, maqsadga muvofiq, deb biladilar.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, tilning sotsial mohiyati, lingvoma'naviyat, lingvoma'naviy birlik, globallashuv.

ЛИНГВОДУХОВНЫЕ ЕДИНИЦЫ В РЕЧНОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация. В последние годы в связи с укреплением межъязыковых и межкультурных связей лингвисты и социальные психологи уделяют особое внимание вопросу изучения культуры общения разных народов. Потому что национально-культурная самобытность отражается в поведении, культуре, духовности и речевом процессе этого народа. Ведь каждый человек, принадлежащий к определенной национальности, участвует в процессе речевого общения, используя особенности культуры и духовного мира своего народа. Взаимодействие человека с людьми его окружения, верования, соблюдение обычаев, стремлений и т. д. обеспечивают его формирование как личности. В этом нет такого аспекта, где бы язык не задействован или язык не выступал бы в качестве инструмента. Поэтому при описании социальной природы языка специалисты справедливо считают целесообразным рассматривать вопросы языка и народной культуры, языка и общества, языка и духовности в диалектическом единстве.

Ключевые слова: речевое общение, социальная природа языка, лингводуховность, лингводуховное единство, глобализация.

LINGUOSPIRITUAL UNITS IN RIVER COMMUNICATION

Abstract. In recent years, in connection with the strengthening of interlingual and intercultural ties, linguists and social psychologists have paid special attention to the issue of studying the culture of communication of different peoples. Because national and cultural identity is reflected in the behavior, culture, spirituality and speech process of this people. After all, every person belonging to a certain nationality participates in the process of verbal communication, using the characteristics of the culture and spiritual world of their people. A person's interaction with people around him, beliefs, observance of customs, aspirations, etc. ensure his formation as an individual. There is no aspect of this where language is not involved or where language is not an instrument. Therefore, when describing the social nature of

language, experts rightly consider it advisable to consider issues of language and folk culture, language and society, language and spirituality in dialectical unity.

Key words: *speech communication, social nature of language, linguo-spirituality, linguo-spiritual unity, globalization.*

Mustaqillik davrigacha yaratilgan soha adabiyotlarida til va ma'naviyat masalasi mutlaqo tilga olinmaganligi ma'lum. Hatto "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan ham, ensiklopedik lug'atlardan ham (o'zbek xalqi ongida, lisonida "ma'naviyat" tushunchasi mavjud bo'lsa-da) ma'naviyat so'zi o'rin egallamagan edi [1]. Biroq lug'atlardan ma'naviy, ma'nani so'zlari o'rin olgan edi. Mustaqillikdan keyin chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan ham, ensiklopedik lug'atlardan ham ma'naviyat so'zi o'rin egalladi. Jumladan,

Ma'naviyat [a. معنوييت – axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar] Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh. k. tasavvurlari va tushunchalari majmuyi. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Gazetadan. .. ma'naviyatimizga ta'sir etuvchi jihatlar shunchalik ko'pki, ularni sanab, sanog'iga yeta olmaymiz. Gazetadan. Zero, naqshbandiya ta'limoti –ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri hisoblanadi. Gazetadan. Ajdodlarimiz falsafasi ham ma'naviyatimizdir. Gazetadan. Biz talabalarga Sharq ma'naviyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida o'rgatamiz. Gazetadan [10].

Lug'atda ma'naviyat tushunchasi mohiyati o'tgan davr adabiyotlarida berilgan ideologiya va unga uyqash so'zlar ifodalagan mazmun orqali berilgan [9]ki, bu siqqlikdan soha adabiyotlari allaqachon voz kechganligini hamda bizning ajdodlarimiz bu tushuncha mohiyatini juda chuqur anglaganliklarini inobatga olib til lug'atlarimizda mazkur tushunchaga batafsilroq izoh berish zarur.

Bugungi kunda milliy mafkuraning o'zgarishi, borliqni yangicha idrok etish usulining qaror topganligi, milliy ma'naviyat va merosning qadriyat tusini olishi, o'tmish, bugun va kelajak uyg'unligi yangicha talqinlarining ommalashganligi, umuman olganda, milliy o'zlik tushunchasining taraqqiyotimiz o'zak konsepti darajasiga ko'tarilganligi ma'naviyat tushunchasining rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jahon hamjamiyatidan o'rin olish, texnik-texnologik va iqtisodiy integratsiya bilan birga, milliy-ma'naviy o'zlikni saqlash va rivojlantirish, umuminsoniy ideallar bilan uyg'unlashtirish asosida kechmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini milliy ma'naviyatni rivojlantirishni unga uyg'unlashtirmasdan amalga oshirib bo'lmazligi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xususan, jahonda yuz bergan ekologik, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, dunyo miqyosida terrorizm, ekstremizm va diniy radikalizmning kuchayib borayotganligi masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda [3].

Globalashuv sharoitida bu inqiroz turlari bir-birlari bilan chirmashib, insoniyatning ilgari misli ko'rilmagan ulkan global inqiroziga aylanish xavfi kuchayib bormoqda. Agar bu xavfning oldi olinmasa, nafaqat bir millat yoki xalq, balki butun insoniyat taraqqiyot deb atalayotgan, aslida taraqqiyot emas, balki to'la ma'nodagi inqiroz oldida ojiz qolishi mumkin. Millat va shaxs ma'naviyatining o'zagi bo'lgan e'tiqod, vijdon, oila kabi muqaddas tushunchalarning tanazzuli shusiz ham ortib borayotgan xalqaro ziddiyatlar natijasida ma'naviy yemirilishning o'zagiga aylanib qolishi mumkin. Ma'naviyatni ana shu tizim tarkibida anglash, uni yaxlit taraqqiyotning asosi sifatida idrok etish tendentsiyasini kuchaytirish barcha zarur amallarning muhimiga aylanmoqda. Bu esa, avvalo, har bir shaxs dunyoqarashini rivojlantirish asosida aholining umumiy ma'naviyatini yuksaltirish zaruratini doimiy kun tartibiga qo'yimoqda.

Demak, yurtimizdagi har bir soha, har bir yo'nalish, avvalo, o'zi amalga oshirayotgan ishlarida, rejalagan faoliyatlarida milliy ma'naviyat masalasini albatta inobatga olishlari, bu masala yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini nazardan qochirmasliklari shart. "Ma'naviyatga eng yaqin hodisa til" [7] ekanligini inobatga olsak, tabiiyki, tilshunoslik sohasi va uning tarkibiga kiruvchi yo'nalishlar ham bundan mustasno emas. Zero, "til va ma'naviyat mushtarakligi muammosining tilshunoslikda yechiladigan xususiy va boshqa fanlar bilan hamkorlikda tizimli hal etiladigan umumiy tomonlari mavjud" [7].

Insonda tafakkur tili, odatda, ona tili bo'ladi. Kishi ona tilida o'ylaydi, ona tilida fikrlaydi, ona tilida dilidagini tiliga, nutqiga ko'chiradi. Ilk so'zi ham, so'nggi kalomi ham ona tili bilan bog'liq. Demak, til millat bilan vobasta. Millatning yaratuvchisi onalarimiz. Shuning uchun ham tilga nisbatan ona tili birligi ishlatilishi tabiiy hol. Ha, tilga ona tili darajasining berilishi unga xalq tomonidan, uning sohiblari tomonidan ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasidir.

Manbalarda millat~til~davlat bir-birini taqozo etuvchi, hech biri alohida faoliyat ko'rsata olmaydigan va biri-birisiz to'laqonli bo'la olmaydigan serqirra kategoriyalar sifatida e'tirof etiladi. Fikrimizcha, bu sirani ona ~ til ~ millat ~davlat~ taraqqiyot sifatida to'ldirish zarur. Vaholanki, til ummon misoli. U shevalardan, boshqa tillardan kirib kelgan lisoniy birliklar – jilg'alar hisobiga to'lib mavjlanib turadi. Shuning uchun tilning lug'at tarkibi ochiq sistema sanaladi. Jamiyat taraqqiyotida yangi-yangi tushunchalarning dunyoga kelishi bilan tilda ularning nomlari ham paydo bo'ladi. Demak, ijtimoiy hayotda ro'y bergan jamiki o'zgarish, yangilanish, avvalo, onalarimizdek beminnat, haroratli tilimizda o'z aksini topadi. Shu jihatdan olib qaraganda til ma'naviyatning ham o'zi, ham ifodachisidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida o'tgan o'n yillar davomida lingvoma'naviyatshunoslik sohasi shakllana boshladi. Jumladan, G.Tojiyevaning "O'zbek tili ma'naviy-ma'rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti ("milliy g'oya" atov birliklari tizimi)" nomli ma'naviy-ma'rifiy soha so'zlari fondining boyib borishi bilan bog'liq ishlari[8] yuzaga keldi. M.Axmedovanning "O'zbek tilidagi "ma'naviyat" va ingliz tilidagi "spirituality" umumiy semali atov birliklari tipologiyasi"[1] nomli tadqiqotida o'zbek tilida "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi va uning tarkibi ingliz tilidagi "spirituality" atov birligi bilan qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, B.Doniyorovning "O'zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati" nomli o'zbek tili leksik sinonimlarining lisonida joylashuv, nutqiy voqelanishi va leksikografik masalalariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi[6]; B.Bahriddinovaning "O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari" nomli doktorlik dissertatsiyasi [2]; A.Eshmo'minovning "O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi" nomli o'zbek tili milliy korpusida sinonimlarni razmetkalash muammolari yoritilgan tadqiqoti[4]; Z.Rajabovanning "O'zbek o'quv frazeografiyasining lingvistik aspekti" nomli dissertatsiyasi; G.Mirxanovaning "O'zbek tilining sinonimlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik asoslari" nomli ishi va yana bir qator tadqiqotlarda o'zbek o'quv lug'atchiligi muammolariga lingvoma'naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilganligini kuzatish mumkin.

Falsafada ma'naviyat milliyligni to'la qamrab oluvchi o'ziga xos kategoriya sifatida talqin etiladi [5]. Yuqorida keltirilgan manbalarda –

o'z qatlamga tegishli: uyat, uyalmoq, uyatchan, sizlamoq, tanti, tantalik, yordam, do'st, yor, iliq, inoq, intilish, kechirim, ong, uyushmoq, uyushqoqlik, uqimoq, o'qigan, uyushqoqlik, uyatchanlik, elparvar, yumshoqlik, o'qimishli, uquvli, elsevar, miyali, o'rtoq va h.;

o'zlashma qatlamga daxldor: farosat, farosatli, fasoxat, fahmli, xushaxloq, xushmulozim, xushmuomala, xushmuomalalik, xushtavoze, hikmatli, hikmatomuz, vijdonli, diyonat, iymon, insoniy, insoniylik, nomuslilik, odil, odillik, odilona yoki


yasalish asosi o'z qatlamdan bo'lgan yasama birliklar: tantilik, uyatli, uyatchan, miyali, sizlamoq, o'zbekona, iliqlik, uyatchan, inoqlik, kechirimli, yordamlash, ongli, onglilik, uyushqoqlik, uyatchanlik, elparvar, yumshoqlik, o'qimishli, uquvli, elsevar;

yasalish asosi o'zlashma qatlamdan bo'lgan yasama birliklar: axloqli, iboli, ilmgoh, ilmli, inobatli, intizomiy, kamsuxanlik, kamsuqumlik, kamtarin, kamtarinlik, kamtarlik, latofatli, lutfkor, lutfkorlik, lutfkorona, madaniyatli, muloyimlik, muomalali, odobli, boodob, odamshavandalik, serhikmat, sipolik, tavozelanmoq, aqlli, vijdoniy kabi minglab so'zlar ma'naviyat bilan bog'lanishi e'tirof etilgan.

Shuningdek, tilimizga arab tilidan o'zlashgan: aql, axloq, ibo, iltifot, intizom, iffat, latofat, lutf, madaniyat, marhamat, nazokat, najib (oqil), nafosat, odob, tavoze, tarbiya, tartib, aql, vijdon, diyonat; forsiydan o'zlashgan: kamsuxan, kamtar, sipo, xokisor, shirinsuxan, pok, nozikfahm, xudojo'y, mehr, mehrafshon, pokdomon, rostgo'y, pokiza, mehribon, andisha kabilar ham lingvoma'naviyat bilan aloqador.

Bizningcha, barkamol inson ma'naviyati quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi va lingvoma'naviyatga tegishli barcha leksik birliklarni qamrab oladi (Qarang: 4.3-rasm):

4.3-rasm. O'zbek lingvoma'naviyatiga tegishli leksik birliklarni qamrab oluvchi bosqichlar



Chizmada ko'rsatilgan bosqichlarga tegishli lingvoma'naviy tushunchalarning deyarli barchasini diskursda sukut kompensatsiyalay oladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buni badiiy asarlardan olingan misollar orqali ko'rib o'tamiz.

Misol. Anchagina **so'zsiz o'lturgandan** so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.

– O'glim, hali san eshitdingmi, yo'qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek ma'lumki, ularning “qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini” albatta bilar edi.

Shundog'am bo'lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o'gullari ustidan qilgan ishlari albatta noma'qul bo'lmas, – dedi.

Hoji o'glining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi. Yana oraga **jimjitlik kirdi**. Bu **so'zsizlik** ma'nosiga O'zbek oyim tushuna olmagan edi. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar, 134-b.)

Yusufbek hojining sukutida o'zbek mentalitetiga xos quyidagi lingvoma'naviy xususiyatlar yuzaga chiqadi:

1) ota va o'g'il munosabatida o'ta ehtiyotkorlik va xushmuomalalik: Bilamizki, o'zbek milliy madaniyatida aqli otalar o'g'il farzandlari tarbiyasi bilan o'zlari, qiz farzandlari tarbiyasi bilan esa ahli ayollari shug'ullanishgan. Otalar o'g'il farzandlariga oila, sulolalarining davomchisi, ertangi kunlarining egasi sifatida qarashgan. O'g'illarining o'qimishli, hunarli, odobli bo'lishi, biror kasb-hunar bilan shug'ullanishi uchun sa'y-harakat qilishgan. Tabiiyki, ota va o'g'il munosabatida xushyorlikni qo'ldan bermaslikka, farzandlarining qarorlarini hurmat qilishga, qo'llab-quvvatlashga harakat qilishgan. Agarda farzandlarining qarorlarida “kemtik”lik yoki og'ishish holatlarini sezishsa, buni ularga ehtiyotkorlik bilan tushuntirishga harakat qilishgan.

Keltirilgan parchada ota kommunikant(Yusufbek hoji)ning implitsit (“bir ish qilib qo'ydiq...”; “Hoji o'glining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi. Yana oraga **jimjitlik kirdi**.”) holatda sukut saqlashida ham “O'g'limizning ustida uning o'zi bilan bemaslahat bunday ish qilishga, aslida, haqsizmiz” degan lingvoma'naviy xususiyatlarni ifodalovchi istihola bor;

2) oila xotirjamligini saqlashga harakat qilish: Asar personajlaridan biri O'zbek oyim – o'z davrida Toshkentning “kovushi ko'chada qolmagan” old ayollaridan biri. Unda Toshkent ayollarini lol qoldirib to'y o'tkazish, chiroyi tillarda doston kelin qilish, kelini uning xizmatida bo'lishi, nevaralar ko'rish orzusi bor. (Bunday orzu-havas hozirgi kunda ham aksariyat o'zbek onalariga xos.) Otabek Marg'ilondan sevib uylangan. Unda (Homidvoylarga o'xshab) takror uylanish istagi yo'q. Shunday sharoitda oila tarozisining porsang toshini tenglashtirish, ya'ni oila xotirjamligini saqlashga harakat qilish oila boshlig'i Yusufbek hojining zimmasiga tushmoqda. Yusufbek hojining sukutida, bir tomondan, o'g'lining haqligi istiholasi, ikkinchi tomondan esa, xotining o'g'lidagi onalik haqi, uchinchi tomondan, oilada tinchlik, mo'tadil muhitni saqlash maslagi bor.

O'zbek jamiyatida oila muqaddas qo'rg'on ekanligini, uni buzilishdan saqlash hamma narsadan ustun ekanligini bilamiz. Hatto diniy manbalarda: “Bir oila buzilsa, yetti qavat osmon larzaga keladi” degan

hikmat keltirilgan. Demak, Yusufbek hojining mulohazali sukutida oilada tinchlik, mo'tadil muhitni saqlash maslaji ustun keldi, deyish mumkin.

Misol. Choy og'ziga bemaza tuyulib, piyolani dasturxon ustiga astalik bilan qo'ydi. Avvalgi davrlari bo'lganda "Nima balo, xashak solib damlaganmisan?" deb to'ng'illar yoki piyolani do'q etib qo'yar, yoinki jahli chiqib turgan bo'lsa, choyni sepib yuborardi. Shunda xotin bechora hadik bilan sapchib turib, boshqa choynakda choy damlab kelardi. Ammo yangi damlangan choydan ham ichilmasdi. Chunki aslida choy bemaza emas, kayfiyatning mazasi bo'lmasdi. Asadbek g'azab otidan tushgani bilan ko'ngli na ovqat, na choy tusardi. Er-xotin dam-badam bir-birlariga qarab qo'yib, **jimgina o'tirishardi**. Asadbek jag'i-jag'iga tegmaydiganlarga toqat qilolmas, xotining kamgapligidan mammun yurardi. Biroq, hozirgiday hollarda uning gapirib o'tirishini istadi. "Nimani gapirsa ham mayli, javrab tursa bas", deb xotiniga umid bilan qaradi. Yo'q, Manzura **javramadi**. **Mo'minalik libosini yechmadi**. Ilgari ham, ayniqsa Zaynabning to'yidan so'ng mana shu tarzda ikkovlon ko'p yolg'iz o'tirishardi. Lekin unda Asadbek yolg'izlik to'rida siqilmasdi. Hozir siqildi, yomon siqildi. (T.Malik. Shaytanat. 4-kitob, 155-b.)

Keltirilgan parchadagi "Manzura **javramadi**", "**Mo'minalik libosini yechmadi**" birliklari ayol kommunikantning sukut saqlaganini ifodalaydi. Manzuraning sukutida quyidagi lingvoma'naviy xususiyatlar yuzaga chiqadi:

1) o'zbek ayollariga xos sharm, hayo, ibo kabi fazilatlar: Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganlaridek, "Kishining gapirish uchun bir yaxshi so'zi yoki sukut saqlash uchun chiroyli odobi bo'lsin". Ayolning erkak kishi bilan dialogida o'rni kelganda sukut saqlashi bu uning "hech narsa demadim" yoki "hech narsani bilmayman" degani emas. O'zbek mentaletida xotin-qizlarning bir gapdan qolishi (garchi u haq bo'lsa-da), erkak kishi bilan, ayniqsa, turmush o'rtog'i bilan nutqiy muloqotda o'z maqsadini ko'proq noverbal vosita sukut orqali ifodalashi uning sharmli, hayoli, iboli ekanligini ko'rsatib turadi;

2) erkak kishining oldida bo'lar/bo'lmas gaplarni javrayvermaslik: Aslida, hech narsa aytmaydigan so'zlar bor. Hamma narsani so'zlaydigan jimliklar bor. Oilada ayol erining oldida bo'lar/bo'lmas gaplarni javrayverishi ham shart emas. Ayolning sukuti gapira olishi zarur. Keltirilgan parchada Manzuraning jimligi, sukut saqlashi u nimaga rozi-yu, nimadan ko'ngli to'lmayotganini aniq ifodalab turadi. Ayolning erkak kishi oldida bo'lar/bo'lmas gaplarni javrayvermasligi o'zbek milliy ma'naviyatining bir ko'rinishidir;

3) erkak kishini oilaning ustuni deb bilish va unga quloq solish: Bu holatning go'zal ko'rinishlarini Oftob oyimda ("O'tkan kunlar"), Kumushbibida ("O'tkan kunlar"), Qurvonbibida ("Kecha va kunduz"), Manzurada ("Shaytanat"), Qutlug' Nigorbegimda ("Yulduzli tunlar"), Mohimbegimda ("Yulduzli tunlar") va milliy ruhda yaratilgan yana ko'plab asarlardagi o'zbek ayollari timsolida kuzatishimiz mumkin;

4) iymon quvvati uchun eng katta imtihon: Diniy manbalarda "Ayol kishiga iymon quvvati uchun eng katta imtihon erkak kishi gapirganda tilni tiyishdir" deyiladi. Zero, musulmon oilasida tarbiya ko'rgan xotin-qizlarga erkak kishi gapirganda jim turish, uning gapini bo'lmaslik, erkak kishining yuziga chopmaslik, erkak kishi bilan gap talashmaslik kabilar yoshlikdanoq singdiriladi. "Ayol xudoni eri orqali taniydi" degan hadisning yuzaga kelishi ham, fikrimizcha, shu bilan aloqador. Adib Manzura "**mo'minalik libosini yechmadi**" deganda mohiyatning shu jihatlariga ishora qiladi. Darhaqiqat, ayol kishiga iymon quvvati uchun eng katta imtihon eri gapirganda tilni tiyishdir.

Shu o'rinda sukut lingvoma'naviyatning o'zbekona bosiqlikni, sipolik va jahlni jilovlab olishni ifodalovchi bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Jaloliddin Rumiy hazratlari shunday yozadilar: "Sayoz suvlarni eng yengil shamol ham to'lqinlantira oladi... Chuqur dengizlarni esa faqatgina chuqur (katta) dardlar. Angladimki, chuqur va sir-asrorli bo'lgan har bir narsa sukut saqlaydi. Va yana shuni angladimki, sukut saqlagan har bir narsa chuqur va haybatlidir". Demak, nutqiy muloqot chog'ida ham o'rinli saqlangan sukut chuqur ma'noga ega, verbal nutqqa teng, ba'zan undan-da ta'sirchanroq nutqiy vositadir.

Xalqimiz hamisha ma'noli sukutni ma'nosiz gap-so'zlardan afzal deb hisoblaydi va suhbat chog'ida "mumosib javobing bo'lmasa, sukut oltina tengligini unutmam" deb o'git beradi. Kishi hayotda ham chiroyli gapirib amali gapiga teng kelmaydigan kishilarga emas, aksincha, jim turib go'zal ishlar qiladigan insonlarga ergashadi. Aslida, nutqiy muloqot jarayonida sukut uchun sarflangan kuch, odatda, gapirishga sarflanagan energiyadan ko'ra ikki barobar ko'proq bo'ladi va aqli tetik, farosati baland, ma'nan kuchli kishilargina kerakli o'rinda sukut saqlashni uddalaydilarki, bu – professor Baxtiyor Mengliyev ta'kidlaganidek: "til bag'ridagi ma'naviyat"[7]dir.

O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ida shunday yozadi: "O'zining donoligini ko'rsatish uchun gapiradigan odamdan o'zining nodonligini yashirish uchun sukut saqlaydigan odam aqlliroqdir". Shuningdek, o'zbek lingvoma'naviyati kishilarning yutuqqa erishgan paytda jim turishini ishonch; g'azab

paytidagi sukutini jasorat, donolik; ish paytida jim turishini ijodga mashg‘ullik; nasihat paytidagi sukutni odoblilik; mahzunlik, musibat paytida jim turishni sabrlilik, aql belgisi deb hisoblaydi.

Xulosa shuki, til ma’naviyatning ifodalovchi, saqlovchi, boyituvchi va uzatuvchi vositasi bo‘lgani (maqollar, aforizmlar, fraziologik birliklar, perefrazalar, evfemizm va h.lar) kabi uning noverbal vositalari, jumladan, nutqiy muloqotda goh eksplitsit, goh implitsit tarzda qo‘llaniladigan sukut ham asosiy lingvoma’naviy birliklardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Ахмедова М.Б. Ўзбек тилидаги “маънавият” ва инглиз тилидаги “spirituality” умумий семали атов бирликлари типологияси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер...– Бухоро, 2020. – 135 б.
2. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., – 252 б.
3. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999. – 248 б.
4. Эсимўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қариши, 2019. – 131 б.
5. Эркаев А.П. Маънавият ва тараққиёт. – Тошкент: Маънавият, 2009.– Б.8.
6. Дониёров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автор. – Самарқанд. 2020., – 69 б.
7. Менглиев Б. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1088.htm>
8. Тоғжиева Г.Н. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти (“миллий гоя” атов бирликлари тизими): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) ... диссертацияси. – Самарқанд, 2017.– 143 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 томли. 1- том. – М.: Русский язык, 1981. – Б. 314.
10. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 2- жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 556.
11. Yuldasheva D.N. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili (1-kitob)*.– Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023.–140 b.
12. Yuldasheva D. N. *Silence-is a nonverbal unit of speech communication//American Journal of Research, 2020. –11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95.*

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



Google
scholar



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
05.06.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344